



Turg'unov Jasurbek
Alimardon o'g'li

Xalqaro Nordik Universiteti
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0002-1161-8960



SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AYLANMA IQTISODIYOT AMALIYOTINI JORIY ETISH MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqola sanoatni korxonalarini rivojlantirishda aylanma iqtisodiyot amaliyotini joriy etish zaruratini ko'rsatib beradi. Tadqiqot aylanma iqtisodiyotni joriy etish orqali barqaror rivojlanishga erishish yo'llari va atrof-muhitni himoya qilish imkoniyatlarini o'rgangan. Shuningdek, maqolada aylanma iqtisodiyotning mamlakatimiz va global iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qiling. Shuningdek, ushbu maqola sanoatni rivojlantirishda aylanma iqtisodiyot tajribasini qo'llashga oid amaliy tavsiyayalarni taqdiim etgan.

Kalit so'zlar: aylanma iqtisodiyot, chiziqli iqtisodiyot, ta'minot zanjiri, issiqxona gazlari, sanoat4.0, atrof-muhit himoyasi gazlar emissiyasi, qiymat zanjirlari, qattiq maishiy chiqindilar.

KIRISH

Sanoat korxonalari har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ular ish o'rinlarini yaratish, mamlakatning ichki mahsulotini oshirish va texnologik yuksalishni ta'minlash kabi omillar bilan jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, sanoat rivojlanishi atrof-muhitga sezilarli darajada salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bugungi kunda sanoat rivojlanishi bilan atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ekologik va ijtimoiy masala sifatida global darajada ko'rib chiqilmoqda. Sanoat korxonalarining faoliyati natijasida paydo bo'ladigan chiqindilar, kimyoviy moddalar va boshqa zararli mahsulotlar tabiiy muhitga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, xususan, sanoat korxonalarining atrof muhitga ta'sirini kamaytirish orqali ekologik holatni yaxshilash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bu borada o'tkazilgan tahlil natijalari sanoat korxonalarida atrof muhitni muhofaza qilish masalalarida kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning samarali va zamonaviy usullarini joriy etish zaruratini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish jumladan aylanma iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish bilan bog'liq bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish

strategiyasida ushbu yo'nalishlar borasida bir qator vazifalar belgilab berilgan. Unga ko'ra;

- ekologiyaga zarar yetkazmaydigan infrazuzilmani shakllantirish va sanoat korxonalarida aylanma (sirkulyar) iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish, bunda, modernizatsiya jarayonlarini rag'batlantirish;

- alohida qiymat zanjirlari va tarmoqlarini yaratish uchun aylanma iqtisodiyot bo'yicha harakatlar rejalari ishlab chiqish;

- sanoat korxonalarida hosil bo'layotgan oqova suvlarni tozalash va aylanma suv ta'minotini joriy qilish, tozalangan suvlarni texnologik yoki maishiy-xo'jalik maqsadlarida qayta ishlatish ko'lamini oshirish choralarini ko'rish masalalariga to'xtab o'tildi.

Aylanma iqtisodiyot ifloslanish va chiqindilarni minimallashtiradi. Ta'minot zanjirining barcha bosqichlarida, ishlab chiqarishdan tortib iste'molgacha, shu jumladan ta'mirlash va qayta ishlashda, chiqindilarni boshqarish va ikkilamchi xomashyo ishlab chiqarishda ham aylanma iqtisodiyotga intiladilar.

Aylanma iqtisod har qanday iqtisodiyotda resurslarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish modeli bo'lib, u imkon qadar uzoq vaqt davomida mavjud materiallar va mahsulotlarni almashish, ijaraga berish, qayta foydalanish, ta'mirlash, qayta tiklash va qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Konsepsiya iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, chiqindilar va ifloslanish kabi global muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, modelning uchta asosiy tamoyilini loyiha asosida amalga oshirishga urg'u beradi. Aylanma iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan asosiy uchta tamoyil quyidagilardir: chiqindilar va ifloslanishni loyihalash, mahsulot va materiallarni ishlatishda saqlash va tabiiy tizimlarni qayta tiklash.

Aylanma iqtisod strategik ustunlikka erishish uchun



uning asosiy tamoyillaridan foydalanish orqali resurslar samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi, bunda kompaniyalar ekologik yuklarni kamaytirishga va o'z faoliyatining iqtisodiy jihatlarini yaxshilashga intiladi. Aylanma iqtisodiyot shu nuqtai nazardan bir qator afzalliklarga ega va ular quyidagilardan iborat:

- Atrof-muhitga;
- Milliy iqtisodiyotni rivojlantiradi;
- Mehnat unumdorligini oshiradi;
- Resurslar barqarorligini ta'minlaydi;


Aylanma iqtisodiyot chiziqli iqtisodiyotga qarama-qarshidir, bunda "chiqindilar" resurs bo'lib xizmat qiladi va ishlab chiqarish jara-yoniga qayta kiritiladi. Aylanma iqtisodiyotda mahsulotlar imkon qadar uzoq vaqt davomida ishlatiladi, tabiiy tizimlarni qayta ishlab chiqaradi. Mahsulotlarning yaroqlilik muddati konsepsiyasi, qayta ishlatish, qayta tiklash

tamoyillar ishlaydi. Aylanma iqtisodiyot chiziqli modeldan tashqari ishlab chiqarishning boshqa usullarini ham o'z ichiga oladi. (1-chizma)

Adabiyotlar sharhi. Ilmiy adabiyotlarda sanoat korxonalarini rivojlantirishda aylanma iqtisodiyot modellarini joriy etish bo'yicha xorijlik tadqiqotchilar tadqiqot ishlarini olib borganligini qayd etib o'tish lozim. Frank, Rajput and Singh, Suárez-Eiroalarning ta'kidlashicha¹ aylanma iqtisodiyot va Sanoat 4.0 so'nggi yillarda sanoatni boshqarayotgan ikkita asosiy sanoat paradigmasi bo'lib turganligini va biznes tashkilotlarini ishlab chiqarish va iste'molga yangi ko'rinishni taqdim etadigan innovatsion ta'minot zanjiri modellariga o'tishni rag'batlantirishi haqida fikr yuritgan. Shuningdek tashqari, Barros va boshqalar² ay-

¹ Frank et al., A.G. Frank, L.S. Dalenogre, N.F. Ayalá, Industry 4.0 technologies: implementation patterns in manufacturing companies Int. J. Prod. Econ., 210 (2019), pp. 15-26

² Barros et al., 2020 M.V. Barros, R. Salva-



1-chizma. Chiziqli iqtisodiyot va aylanma iqtisodiyotning farqi¹

¹ Muallif ishlanmasi

lanma iqtisodiyotni joriy etish istiqbolda tub o'zgarishlarni olib kelishni, bu orqali chiqindilar hosil bo'lishini minimallashtirish uchun faol choralar ko'rish masalalarini o'rganib chiqdi. Aylanma iqtisodiyot tamoyillarni qabul qilish orqali chiqindilar emissiyasi va resurslarning samarasiz ishlatilishini sezilarli darajada kamayishi mumkinligini o'rgandi. Xomashyo mahsulotlari uzoq vaqt davomida saqlanish imkoniyatiga ega, ularning qiymati saqlab qolish imkoniyati mavjud bo'lib, tayyor bo'lgan xomashyo resurslarini qazib olish qo'shimcha mablag' talab etishi haqida fikr yuritdi. Ba'zi tadqiqotlar, Koolivand va boshqalar³ Erondagi sanoat chiqindilari tarkibini tahlil qilishga doir tadqiqot o'tkazdi. Ularning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sanoat korxonalarida qayta ishlanadigan materiallarni aralash chiqindi sifatida utilizatsiya qilishning asosiy sababi, qayta ishlash korxonalarining yetarli darajada yo'qligi bo'lib chiqdi. Vignesvaran⁴ Tailandda chiqindilarni barqaror boshqarish yechimlari imkoniyatlarini o'rganib, aylanma iqtisodiyot jarayon texnologiyasini o'zgartirish va qayta ishlash kabi chiqindilarni minimallashtirishning oddiy usullari muhimligini ta'kidladi. Hozirgi vaqtda ma'lum chiqindilar, plastiklar va qog'oz mahsulotlarini qayta ishlash iqtisodiyotiga keng yo'l ochilmoqda⁵

Shular qatorida T.K.Iminov, A.V.Vahobov, T.Z.Teshaboyev, N.H.Hakimovning tadqiqotlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish, jumladan aylanma iqtisodiyotning mahalliy imkoniyatlari, xorijiy tajribalari, sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy ekologik muammolari kabi masalalarni izchil o'rganib kelinmoqda⁶.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda ilmiy asoslangan statistik tahlil, statistik baholash,

dor, G. Francisco do Prado, A. Carlos de Francisco, C.M., Circular economy as a driver to sustainable businesses Cleaner Environmental Systems, 2 (2) (2020), Article 100006

³ Koolivand et al., 2017 A. Koolivand, H. Mazandaranizadeh, M. Binavapoor, A. Mohammadtaheri, R. Saeedi, Hazardous and industrial waste composition and associated management activities in Caspian industrial park, Iran, Environ. Nanotechnol. Monit. Manag., 7 (2017), pp. 9-14

⁴ Vigneswaran, Vigneswaran S. "Industrial waste minimization initiatives in Thailand: concepts, examples and pilot scale trials." J. Clean. Prod., 7(1), 43-47.

⁵ <https://www.nextmsc.com/report/circular-economy-market>

⁶ A.B.Вахабов, Ш.А.Тошматов, Т.К.Иминов, Т.З.Тешабоев, 2. Special Issue, Aug-2021. Academic Journal of Digital Eco-nomics and Stability Special Issue, Aug-2021. ISSN 2697-2212 On-line: <https://academicjournal.io>.


qiyosiy taqqoslash va boshqa yondashuv hamda usullardan keng foydalanildi. Xususan, mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilishda tizimli tahlil metodidan, aylanma iqtisodiyotni joriy etish istiqbollari prognoz qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda xomashyo resurslarini qazib olish va ishlatish global issiqxona gazlari miqdorini 70 foizini tashkil qiladi. Eng asosiy sanoat materiallardan (sement, po'lat, plastmassa va alyuminiy) samaraliroq va aylanma iqtisodiyot orqali 2050 yilga kelib global issiqxona gazlar emissiyasini 40 foizga kamaytirish mumkin. Oziq-ovqat sanoati tizimidagi aylanma iqtisodiyot yondashuvlar natijasida biz global zararli gazlar emissiyasini 49 foizga qisqartirishimiz mumkin. Hozirga kunda Circular Gap Report ma'lumotlariga ko'ra global iqtisodiyotning hozirda 7,2 foizini aylanma iqtisodiyot tashkil etmoqda.



**2023-2030 yillarda Aylanma iqtisodiyotni Jahon iqtisodiyotidagi yalpi bozor ulushi
(mlrd. AQSh dollarida)**



Manba: <https://www.nextmsc.com>

2021-yilda aylanma iqtisodiyot butun dunyo bo'ylab daromadi taxminan 339 milliard dollarini tashkil etadi. 2026-yilga kelib bu ko'rsatkich ikki baravar ko'payib, 712 milliard dollarlik bozor imkoniyatiga ega bo'lishi prognoz qilinmoqda. Chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha global xizmatlar bozorining prognoz qilingan qiymati 88 milliard dollarni hisobga olgan holda iqtisodiyot qiymatini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa o'z navbatida 2020-2030 yillar uchun yillik 4,79% o'sishni qayd etadi.

Butun dunyoda chiqindilarning hosil bo'lish sur'ati yil sayin oshib bormoqda. 2020 yilda jahonda jami 2,24 milliard tonna qattiq chiqindi hosil bo'lgan. Uning atigi 17 foizi qayta ishlangan. 2050 yilga borganda, aholining tez sur'atlar bilan o'sishi va urbanizatsiya tufayli yillik chiqindilarning vujudga kelishi 2020 yildagiga qaraganda 73 foizga oshib, 3,88 milliard tonnaga yetishi kutilmoqda. Shu bois, dunyodagi qator mamlakatlar qattiq maishiy chiqindilarning hosil bo'lishini kamaytirish va mahsulotlardan takroran foydalanish yoki ularni qayta ishlash uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rmoqda. Masalan, Niderlandiya 2030 yilga borib, resurslardan foydalanishni 50 foizga kamaytirishni, 2050 yilgacha chiqindilarsiz aylanma iqtisodiyotga to'liq o'tishni maqsad qilgan. Fransiyada esa 100 foiz aylanma iqtisodiyotga o'tishga oid 50 ta chora-tadbirni o'z ichiga olgan aylanma siklli iqtisodiyotning yo'l xaritasi ishlab chiqqan.

O'zbekistonda ham sanoat korxonalari-ning rivojlanishida aylanma iqtisodiyot texnologiyalarini keng joriy etish muhim masala hisoblanadi. Aylanma iqtisodiyotni joriy etishning asosiy mezonini sifatidan chiqindilarni qayta ishlash va ularni atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2019 yilda qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratishni nazarda tutuvchi "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi" tasdiqlangan⁷. Strategiyada hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarning kamida 60 foizini qayta ishlashni ta'minlash, o'ziga xos xususiyatga ega qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini 25 foizgacha oshirish va chiqindi poligonlarida ko'mib yuboriladigan qattiq maishiy chiqindilar hajmini 60 foizgacha kamaytirish kabi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish ko'zda tutilgan.

Tahlillarga ko'ra O'zbekistonda yiliga 14 million tonnaga yaqin chiqindi hosil bo'ladi, ularning 4-5 foizi qayta ishlanadi. Chiqindilarni boshqarishning joriy amaliyotlari chiqindi poligonlarda 7 million tonnadan ortiq issiqxona gazlarining chiqishiga va 43 000 tonna zaharli filtratlarning yer ostiga oqib chiqishiga

⁷ <https://lex.uz/docs/-4291729>

olib keladi. Andijon va Toshkent viloyatlarida kuniga 4 ming tonna chiqindi qayta ishlanib, yiliga 630 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida esa kuni 3 ming tonna chiqindini qayta ishlab, yiliga 480 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Buxoro va Navoiy viloyatlarida kuniga 1500 tonna chiqindini qayta ishlanadi va 200 million dollar sarmoya hisobidan 363 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Mamlakatimizda aylanma iqtisodiyotni joriy qilish amaliyoti orqali 4,7 million tonnadan ortiq chiqindilarni yoqish, 2,1 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va 152 million kub metr tabiiy gazni tejab, qattiq maishiy chiqindilardan samarali foydalanish maqsad etib belgilangan. Bu orqali esa zararli gazlari chiqindilarini 2,4 million tonnaga qisqartirishi va 1200 ta yangi ish o'rne yaratish mumkin.

Aylanma iqtisodiyotni joriy etish orqali erishiladigan natijalar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin.

1. Atrof-muhitga ta'sir pasayishi: aylanma iqtisodiyot sezilarli darajada chiqindilarni samarali boshqarish tizimi orqali issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishga va resurslardan (masalan, energiya, suv, er va materiallar) samarali foydalanish hamda iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi. Xom ashyoni keng

miqyosda qayta ishlatish tabiatga va yashash muhitini, shuningdek, biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib keladi

2. Xom-ashyo ta'minoti zanjirining barqarorligi: aylanma iqtisodiyot xomashyo yetkazib berish bilan bog'liq risklar, masalan, narxlarining o'zgaruvchanligi, mavjudligi va importga qaramlik muammosiga yechim beradi.

3. Raqobatbardoshlikni oshiradi. Aylanma iqtisodiyot korxonalarga tejamkorlik olib kelishi mumkin va resurslar samaradorligini oshirish orqali iste'molchilarni rag'batlantiradi. 2030 yilga kelib, aylanma iqtisodiyotga o'tish orqali Yevropa Ittifoqi sof resurslar iste'molini har yili 600 milliard yevroga qisqartirish, jami daromad 1,8 trillion Yevroga teng bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari korxonalar uchun raqobatdoshda ustunliklarni taqdim etadi.

4. Innovatsiya: aylanma iqtisodiyot tarmoqlar bo'ylab katta innovatsion harakatni keltirib chiqarishi mumkin materiallar va mahsulotlarni qayta loyihalash zarurati tufayli iqtisodiyotga foyda keltiradi.

5. Rivojlanish: aylanma iqtisodiyot rivojlanishni kuchaytirishi va yangi ish o'rinlarini yaratishi mumkin. Hisob-kitoblarga ko'ra, aylanma iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 2030 yilga qadar 1 foizdan 7 foizgacha oshishiga turki beradi.



2-chizma. Aylanma iqtisodiyotni barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlari⁸

⁸ Muallif ishlanmasi

Xulosa va takliflar

Sanoat korxonalarida aylanma (sirkulyar) iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish sanoat korxonalariga yangi, zamonaviy, kam chiqindili texnologiyalarni olib kirish hamda atrof-muhitga chiqadigan chiqindilarning kamayishiga harakat ketma ketligini o'z ichiga oladi. Ushbu sohada olib borilayotgan ishlar taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib, tabiatga nisbatan bo'layotgan antropogen va texnogen ta'sirlar sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlaydi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarda hatti harakatlarni amalga oshirish lozim:

1. Ekologik infratuzilmani shakllantirish va sanoat korxonalarida aylanma (sirkulyar) iqtisodiyot amaliyotini keng joriy etish;

2. Sanoatda issiqxona gazlari emissiyasini keskin qisqartirish rejalashtirilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish;

3. Ekologik toza va xavfsiz texnologiyalarni joriy etayotgan sanoat korxonalari uchun maxsus imtiyozlar taqdim etishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, aylanma iqtisodiyot chiqindilarni kamaytirishdan tashqari, ifloslanishni kamaytirishga ham hissa qo'shadi. Yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq atrof-muhit ifloslanishining sezilarli darajada pasayishiga xizmat qilib, shu jumladan havo va suvning ifloslanishi va uglerod chiqindilarining kamayishi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, aylanma iqtisodiyot atrof-muhit ifloslanishining oldini olish bilan bir qatorda, resurslarni tejash, biologik xilma-xillikni asrash, ishlab chiqarish va iste'mol qilishning barqaror modellarini yaratish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, ushbu yo'nalishlarda innovatsiyalarni tatbiq etish, biznesni rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Qayta tiklanadigan manbalar va energiyaga e'tibor qaratish orqali aylanma iqtisodiyot iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Stefanie Vehring Role of Conformity Assessment in the Circular Economy, IAF Outlook, 2023

2. Barros et al., 2020 M.V. Barros, R. Salvador, G. Francisco do Prado, A. Carlos de Francisco, C.M., Circular economy as a driver to sustainable businesses Cleaner Environmental Systems, 2 (2) (2020), Article 100006

3. Koolivand, H. Mazandaranizdeh, M. Binava-poor, A. Mohammadtaheri, R. Saeedi, Hazardous and industrial waste composition and associated management activities in Caspian industrial park, Iran, Environ. Nanotechnol. Monit. Manag., 7 (2017), pp. 9-14

4. Vigneswaran, Vigneswaran S. "Industrial waste minimization initiatives in Thailand: concepts, examples and pilot scale trials." J. Clean. Prod., 7(1), 43-47.

5. Frank et al., A.G. Frank, L.S. Dalenogare, N.F. Ayala, Industry 4.0 technologies: implementation patterns in manufacturing companies Int. J. Prod. Econ., 210 (2019), pp. 15-26

6. A.B.Вахабов, Ш.А.Тошматов, Т.К.Иминов, Т.3.Тешабоев, 2. Special Issue, Aug-2021. Academic Journal of Digital Eco-nomics and Stability Special Issue, Aug-2021. ISSN 2697-2212 Online: <https://academicjournal.io>.

7. Uktamov, X. (2023). Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini taminlash mexanizmini takomillashtirish. iqtisodiyot va ta'lim, 24(3), 375-379

8. Turg'unov J. A. (2023). Mamlakatizmida yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari, Qo'qon universiteti xabarnomasi 9-son, 85-87-betlar

9. Turg'unov J. A. (2024). Sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini baholashda EIA tizimini joriy etishning xorij tajribasi, Qo'qon universiteti xabarnomasi 11-son

10. Turg'unov J.A Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnali – Toshkent, 2024. 7-son. 196-201 betlar

11. Turg'unov J. A. (2024). Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash. Qo'qon universitetida o'tkazilgan "Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. 935-939 betlar.

12. <https://www.sciencedirect.com>

13. <https://www.nextmsc.com/report/circular-economy-market>

14. lex.uz - O'zbekiston qonunchiligi